

OTM TALABALARIGA IKKINCHI HORIJY TILNI INTEGRALLASHGAN
HOLDA O'QITISHDA SCAFFOLDING (NARVON) INNOVATIV USULINI
QOLLASHGA DOIR

Baxridinova Mutabarxon Adaxamovna, And.DU doktoranti

Annotatsiya:“O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi boshqichga olib chiqish chora – tadbirlari tog‘risida” PQ-5117 qarori chet tili o‘qitishni yangi pallaga olib chiqdi. Ushbu maqolada filologik o‘quv yurtlarida ikkinchi xorijiy tilni o‘qitishda zamon talablariga ko‘ra o‘qitish va va til o‘rganish samaradorligini oshirishga hissa qo‘shadigan samarali usullardan biri to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar:Scaffolding, proksimal rivojlanish, ehtiyoj analizi, Mikro-Scaffolding, ijtimoiy integrallashuv, kontseptual, real vaziyat, lingvistik talablar, rejalashtirish

Talabalarning gapirish kompetentsiyasini yanada mukammallashtirish va ularni diskurs bahslarda faol ishtirokini jonlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun “Scaffolding” “narvon” usulidan yaqindan foydalanish mumkin. Bu har qanday horijiy tilga e‘tiborli ta‘lim berish usuli bo‘lib, Vyigotskiyning 'Proksimal rivojlanish zonasi'ning yaqinlashuvi” 19712:238) yondoshuviga asoslanadi. Bu usul shunday xarakterlanadi:

Vaqtincha bolsada tildagi nutqni qollash maqsadida narvon o‘rnatiladi. Scaffolding usulining eng muhim shartlaridan biri avvalombor “Was?, Ya‘ni nima?” savoli emas aksincha “Wie?, ya‘ni qanday qilib? degan savolning birinchi qoyilishidir. [1,43]. Bu jarayonda talabalar uchun aynan mos keladigan qollab quvvatlash topshiriqlari beriladi. Bu topshiriqlarni talabalar oz bilimlari asosida mustaqil ravishda birovning yordamisiz bajarishga qodir boladilar.

Scaffolding tamoyillariga ko'ra darsni rejalashtirish uchun quyidagi tort komponent dars rejasiga kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardir:

Ehtiyoj analizi,organish holatini tushunib yetish,darsni rejalashtirish va darsning ijtimoiy integrallashuvi

Ushbu me'zonga ko'ra 1chi komponent (ehtiyoj tahlili) va 2chi komponent (o'rganish holatini tushunish) chet tili darsini rejalashtirishning boshlang'ich nuqtasi deb hisoblanadi.Bu jarayonda ham mutaxassislik,ham tilshunoslik jihatlarni bir-biriga taqqoslanadi[3.26].Masalan, kundalik o'quv materialini ketma-ketlik bo'yicha mazmunan bosqichma-bosqich tartiblashda oddiy kundalik muloqotdan murakkab kontextga asoslangan kontseptual tildan foydalanishga bog'lash maqsadga muvofiq boladi[2,54]. Scaffolding,ni to'rtinchi komponentini Mikro-Scaffolding deb ataydigan bo'lsak,Rösch Heidi.ni Scaffolding printsiplariga ko'ra darsni rejalashtirishni nemis tili darslariga joriy etishni ko'rib chiqmoqchimiz: Birinchi bo'lim **Makro-Scaffolding** deb ataladi.

1. Ehtiyojlar tahlili til ehtiyojlarini belgilaydi:

O'quv darsligidan o'rin olgan bir qator darslar lingvistik talablar bo'yicha tahlil qilinadi,bu tahlilga ko'ra qaysi matnlar o'qilishi kerak,qanday matn turlari yozilishi lozim,yana qanday matn turlarini darslikka kiritish muhim va oziga xos yangi ko'rsatmalarga ega bolgan matnlar,grammatik hodisalarni o'z ichiga olgan hamda yangi fan terminlarga boy bolgan matnlar darslikka joriy etilishiga aniqlik kiritiladi.

2. O'quv holatini baholash qo'shimcha ravishda guruhning til darajalarini oshirish uchun xizmat qiladi vat til o'rganuvchilarni tilga qoyilgan talablarga mos kelishi taqqoslanadi.Bunda talabalarning tildagi strukturalarni qay darajada

egallaganliklari va bu borada ularga qanday ko'mak va dastak kerakligi aniqlanadi va bu yordam qanday tashkil etilishi ko'rib chiqiladi.

3. Ehtiyojlar tahlili va o'quv holatini baholash natijalari dars rejasida umumlashtiriladi va quyidagi me'zonlar hisobga olinadi:

→ *Oldingi bilim va tajribani kiritish*

→ *Mos materiallarni tanlash*

→ *O'quv vazifalari ketma-ketligi*

→ *O'quv va ishlash shakllari tasnifi*

→ *Turli xil tanishtirish shakllarini tanlash*

→ *Bog'lovchi matnlarni kiritish*

→ *Sermazmun ma'lumotlarni kiritish*

→ *tasviriy va kognitiv fazalarni rejalashtirish*

yuqoridagi me'zonlar talabalarning til bilish darajasiga mos kelishi kerak va bu shaklda erkin ishlay olishlari kerak. Endilikda ikkinchi bo'lim **Mikro - Scaffolding** jarayonini keltiramiz:

→ *O'qituvchi – talaba muloqotini sekinlashishi*

→ *Ikkinchi xorijiy tilni egallayotganlar uchun dars rejasini vaqtini ko'paytirish*

→ *Darsdagi muloqot namunasini xilma xil shaklda o'zgartirish,*

→ *Hayotiy muloqot vaziyatlarini yaratishga erishish*

→ *O'qituvchi yordamida dars rejasida ko'zda tutilgan hayotiy savol javoblarni diqqat bilan tinglash, ularga mos fikr bildirish*

→ *Talabalar fikrini o'qituvchi tomonidan qayta kodlash*

→ *Talabalar fikrini kattaroq konseptual kontsepsiyalarga kiritish*

Ushbu scaffolding (narvon) usulida “Doktor huzurida” mavzusini korib chiqamiz va natijalar bilan o'rtoqlashamiz:

1.Dialogni qo'llay olish:

Talabalar darslikdan rasmlil holatni kuzatish va unga doir so'z va so'z birikmalarini o'qib tushuniladi.

2.Ikkinchi o'rinda audiodan kasalxonadagi jarayonni tinglash:

Talabalar tinglash jarayonida so'zlarni yozib oladi

3.Real vaziyatni mashq qilish:

Talabalar juft- juft bolib dialog tuzadi.

Natijani qayd etish:

Talabalar tayyor so'z va so'z birik malarni ko'chirib yozadi.

Auditoriyada prezetatsiya qilish:

Talabalar tinglab tushungan so'z va so'z birikmalarini og'zaki aytib beradi.

Hayotiy rolli oyinlarni bajarish:

Talabalar bevosita “Vrach- bemor” rolini bajaradi.

Ko'rib turganimizdek *Scaffolding (narvon)* usuli bir qator afzalliklari bilan ikkinchi horijiy tilni o'qitishga qoyilayotgan talablarga to'liq va samarali javob beradi deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rösch, Heidi (2001) Handreichung Deutsch als Zweitsprache. Berlin: Senatsverwaltung für Schule, Jugend und Sport
2. Schmölder-Eibinger, Sabine (2007) Textkompetenz, Lernen und Literale Didaktik. Unter www.ab-rapa.org.br
3. Rösch, Heidi (2013) Integrative Sprachbildung im Bereich Deutsch als Zweitsprache. In: Röhner, Charlotte / Hövelbrinks, Britta (Hrsg.)